

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

No _____

2022 yil 14 yanvar

1. Loyihaning turi: Xo'jalik shartnomasi
2. Loyihaning yo'nalishi/nomi: Haq evaziga xizmat ko'rsatish to'g'risida
3. Loyihaning muallifi va kiritilgan sana haqida ma'lumot: Shartoma loyihasi "UniconSoft" MCHJ tomonidan ishlab chiqilib Taxiatosh tumani Madaniyat bo'limiga shartnomaga oferta sifatida kiritilgan va bo'lim markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 14.01.2022 yili kiritildi
4. Loyiha bo'yicha taklif va izohlar:

Shartnoma loyihasi markaz tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi va quydagicha izoh beriladi:

shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""ijro.gov.uz" intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyati ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 31.05.2021 yilgi PQ-5132 sonli Qarorini bajarilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan;

mazkur shartnoma "Unicon-Soft" MCHJ (bajaruvchi) tomonidan 12 yanvar 2022 yili ishlab chiqilgan va Taxiatosh tumani Madaniyat bo'limi (abonent) shartnomani offerta sifatida olgan. Unga ko'ra, bajaruvchi abonentga bir martalik to'lov evaziga har biri 260000 so'mni tashkil etuvchi bir dona ERI saqlovchi qurulmani haq evaziga pullik xizmatlar ko'rsatish to'g'risida ishlab chiqilgan;

shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari to'g'risidagi 38-bob normalarga va O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yilgi 670-I-son "Xo'jalik yurutuvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 10-16 modda talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Qolaversa, shartnoma loyihasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.08.2021 yilgi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-tonli Farmoni talablariga muvofiq ishlab chiqilib shartnoma loyihasiga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarni o'ziga qamrab olgan.

Xulosa

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, unga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Taxiatosh tumani
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti



A.Kdirbaev